Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNING ROLI

Xasanova Sofiya Komoliddinovna
sofiyakhasanova777@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22169147

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda davlatning o‘rni institutsional, moliyaviy-iqtisodiy va strategik-raqamli jihatlardan tahlil qilingan. Tadqiqot me‘yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili va tizimli yondashuv usullariga asoslangan. Turizm sohasining rivojlanish omillaridan eng asosiy mexanizmlaridan hisoblangan davlat siyosatini yanada takomillashtirish bo‘yicha xulosalar taqdim etilgan.
Kalit so‘zlar: turizm sohasi, davlat boshqaruvi, institutsional islohotlar, davlat-xususiy sheriklik, turizmni raqamlashtirish, hududiy iqtisodiy o‘sish, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.

Kirish. Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining eng yuqori daromadli tarmoqlaridan biri bo‘lib, o‘z infratuzilmasini shakllantiruvchi, madaniy merosni saqlab qoluvchi va tarmoqlararo o‘sishning kuchli drayveri bo‘lgan kompleks industriya sifatida namoyon bo‘lmoqda. So‘nggi o‘n yil ichida turizm O‘zbekiston iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga, mamlakat siyosiy-iqtisodiy kun tartibining markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Vizalarni soddalashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish va soha boshqaruvini institutsional jihatdan takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi davlatning ushbu jarayondagi yetakchi rolini yaqqol namoyon etadi.

Turizm bozori tabiatan faqat bozor mexanizmlariga tayanib rivojlana olmaydigan, aksincha davlat tomonidan maqsadli qo‘llab-quvvatlash, huquqiy-me‘yoriy baza va infratuzilma yaratishni taqozo etadigan soha hisoblanadi. Tadqiqotchilarning fikricha, davlatning aralashuvi ayniqsa yangi bozorga chiquvchi turistik yo‘nalishlar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki xususiy sektor yolg‘iz holda yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va xalqaro bozorda mamlakat brendini shakllantirish vazifasini to‘liq bajara olmaydi.

Muammoning dolzarbligi shundaki, turizm sohasidagi islohotlar tezkor sur‘atda olib borilayotgan bo‘lsa-da, davlatning turli funksiyalari (institutsional, moliyaviy, strategik, raqamli) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tizimli tahlil qiluvchi ilmiy ishlar hali yetarli emas. Shu sababli mazkur tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda davlatning rolini uning asosiy funksional yo‘nalishlari bo‘yicha tizimli tahlil qilish va ularning o‘zaro bog‘liqligini asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni (Prezident farmonlari va qarorlari) mazmuniy tahlil qilish, davlatning turli funksiyalarini yagona tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon beruvchi tizimli yondashuv, shuningdek, mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish va mantiqiy tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Adabiyotlar sharhi. Turizm sohasida davlatning roli mavzusi xalqaro ilmiy adabiyotda XX asrning 80-yillaridan beri tizimli o‘rganib kelinmoqda. K.L. Jenkins va B.M. Genri tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlar misolida o‘tkazilgan fundamental tadqiqotda davlatning turizmga aralashuvi “passiv” va “faol” turlarga ajratilib, xususiy sektorning tajribasi va moliyaviy imkoniyatlari yetarli bo‘lmagan sharoitda davlat ishtirokining obyektiv zaruriyat ekanligi asoslab berilgan[1]. Ushbu yo‘nalishni davom ettirgan K.M. Xoll o‘z tadqiqotida davlatning turizm sohasidagi vazifalarini yettita funksiyaga — muvofiqlashtirish, rejalashtirish, qonunchilik va tartibga solish, tadbirkorlik,

[1] . Jenkins C.L., Henry B.M. Government involvement in tourism in developing countries // Annals of Tourism Research. – 1982. – Vol. 9, No. 4. – P. 499–521.

rag‘batlantirish, ijtimoiy turizm hamda keng jamoat manfaatlarini himoya qilish — ajratib ko‘rsatgan[2]. B. Bremvell esa siyosiy-iqtisodiy yondashuv asosida olib borgan tadqiqotida davlat boshqaruvi (governance) tushunchasini tahlil qilib, davlat institutlarining barqaror turizmni rivojlantirishda nafaqat tartibga soluvchi, balki turli manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi muvofiqlashtiruvchi kuch sifatidagi rolini alohida asoslab bergan[3].

Mazkur mavzu bo‘yicha o‘zbek olimlari va tadqiqotchilarining ishlari ancha keng va xilma-xil yo‘nalishlarni qamrab oladi. Xususan, N. Xaydarov o‘z tadqiqotida “Turizmni rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasi” mavzusini o‘rganib, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning turizmni davlat siyosati orqali qo‘llab-quvvatlash tajribasini tahlil qilgan[4]. I.S. Tuxliyev, G‘.H. Qudratov va M.Q. Pardayev hammuallifligidagi “Turizmni rejalashtirish” o‘quv qo‘llanmasida esa turizmni davlat va hudud darajasida strategik rejalashtirish metodologiyasi batafsil yoritilgan, bu esa davlatning strategik rejalashtirish funksiyasiga bevosita mos keladi[5].

Natijalar va tahlil. Davlatning turizm sohasidagi roli, avvalambor, boshqaruv institutlarini shakllantirish va ularning vakolatlarini aniqlashtirishda namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi soha bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshiruvchi asosiy ijro etuvchi hokimiyat organi sifatida belgilangan bo‘lib, uning faoliyati muntazam ravishda qayta tashkil etib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-348-son qarori bilan qo‘mita faoliyatini qayta tashkil etish va sohani jadal rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasi tasdiqlangan[6]. Qarorning maqsadi sifatida iqtisodiyotning strategik jihatdan muhim sektori sifatida turizm sohasining tizimli va barqaror rivojlanishini ta’minlash, sohada davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish, ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish hamda milliy turistik mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini ta’minlash ustuvor vazifa etb belgilangan. Bu chora-tadbirlarning samarasi milliy statistika qo‘mitasining dastlabki ma‘lumotlariga ko‘ra, 2026-yilning yanvar-mart oylarida 164 ta mamlakatdan jami 2 872 502 nafar chet el fuqarosi turistik maqsadda mamlakatga tashrif buyurgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 770 ming nafarga, ya‘ni 36,6 foizga oshgan statistik ko‘rsatkichlarda ham aks etmoqda[7].Davlatning ikkinchi muhim funksiyasi moliyaviy va soliq-imtiyoz siyosati orqali namoyon bo‘ladi. Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan turistik startaplarga ajratilayotgan subsidiyalar buning yaqqol misolidir: yangi turdagi turizm xizmatlarini ishlab chiqish bilan bog‘liq xarajatlarning yarmi, biroq 1 milliard so‘mdan oshmagan miqdorda, har yili eng yaxshi o‘nta loyihaga subsidiya sifatida beriladi. Shuningdek, mehmonxonalarning xalqaro e‘tirof etilgan ekologik sertifikatlarni olishi bilan bog‘liq xarajatlarning yarmi ham jamg‘arma mablag‘lari hisobidan qoplanadi, bu esa barqaror va “yashil” turizmni rivojlantirishga qaratilgan alohida yo‘nalishni tashkil etadi.

Xorijiy sayyohlar uchun joriy etilgan soliq imtiyozlari ham davlatning turizm eksportini rag‘batlantirish borasidagi faol siyosatini ko‘rsatadi. 2026-yil 1-fevraldan boshlab chet el fuqarolari mamlakat hududidan chiqib ketishda ilgari xarid qilingan tovarlar uchun to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini o‘z xohishlariga ko‘ra naqd pul shaklida qaytarib olish imkoniyatiga ega bo‘ldi — bu xalqaro amaliyotda keng tarqalgan Tax-Free tizimining mahalliy sharoitga moslashtirilgan ko‘rinishidir.

---

[2] Hall C.M. Tourism: Rethinking the Social Science of Mobility. – Harlow: Pearson Education, 2005. – P. 236
[3] Bramwell B. Governance, the state and sustainable tourism: a political economy approach // Journal of Sustainable Tourism. – 2011. – Vol. 19, No. 4–5. – P. 459–477
[4] Xaydarov N. Turizmni rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasi // "Ochiq iqtisodiyot: sog‘lom raqobat, biznes muhiti va investitsion muhit" mavzusidagi ilmiy-amaliy maqolalar to‘plami
[5] Tuxliyev I.S., Qudratov G‘.H., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish: darslik. – Samarqand: SamISI, 2010
[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-348-son qarori
[7] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2026-yil birinchi choragiga oid dastlabki ma‘lumotlari

Davlatning uzoq muddatli strategik rejalashtirish funksiyasi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, unda turizm sohasi bo‘yicha aniq miqdoriy maqsadlar belgilangan: 2030-yilga qadar xorijiy sayyohlar sonini 15 million nafarga, ichki sayyohlar sonini 25 million nafarga, ziyorat turizmi bo‘yicha keladigan sayyohlar sonini esa 3 million nafarga yetkazish ko‘zda tutilgan[8].

Davlat siyosatining yangi bosqichida sohani raqamlashtirish alohida yo‘nalish sifatida ajratib ko‘rsatilmoqda. Turizm qo‘mitasi Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi bilan hamkorlikda mamlakat turizm sohasini 2040-yilgacha rivojlantirish strategiyasi loyihasini ishlab chiqish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha aniq topshiriqlarga ega. Bu holat davlatning zamonaviy turizm boshqaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali xizmatlar sifati va shaffofligini oshirishga intilayotganini ko‘rsatadi.



1-chizma. Turizm sohasini rivojlantirishda davlatning funksional yo‘nalishlari sxemasi[9].

1-chizmada ko‘rsatilganidek, davlatning turizm sohasidagi roli to‘rtta o‘zaro bog‘liq funksional yo‘nalish orqali amalga oshiriladi. Ushbu funksiyalarning har biri mustaqil ahamiyatga ega bo‘lishi bilan birga, ular birgalikda yagona natija — turizm sohasining rivojlanishi va hududlarning iqtisodiy o‘sishiga xizmat qiladi. Bu esa davlat siyosatini alohida yo‘nalishlar bo‘yicha emas, balki yaxlit tizim sifatida shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Muhokama. O‘zbekistonda turizm sohasidagi davlat siyosati so‘nggi yillarda faqat me‘yoriy-huquqiy tartibga solishdan strategik boshqaruvga o‘tish tendensiyasini namoyon etmoqda. Hududlar kesimida turizm infratuzilmasi notekis rivojlangan, bu esa hukumat qarorlarida alohida ta‘kidlangan hududiy loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish zaruratini keltirib chiqargan. Ko‘p darajali boshqaruv modeli nuqtai nazaridan qaraganda, O‘zbekiston misolida hozircha vakolatlarning asosiy qismi milliy darajada Turizm qo‘mitasi va hukumat qarorlari orqali jamlanganligi kuzatiladi, bu esa hududiy va tarmoqlararo (masalan, transport, madaniy meros, ekologiya) darajadagi muvofiqlashtirishni yanada mustahkamlash zaruratini ko‘rsatadi.

[8] https://uza.uz/oz/posts/2030-yilgacha-turizmni-rivojlantirish-uchun-munosib-sharoitlar-yaratiladi_570366
[9] Muallif ishlanmasi

Ziyorat turizmini rivojlantirishda davlatning roli nuqtayi nazaridan qaraganda, olingan natijalar davlat funksiyalarining ushbu segmentda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Bir tomondan, ziyorat turizmi obyektlari (maqbara, masjid, ansambl kabi moddiy-ma’naviy meros namunalari) asosan davlat mulki yoki davlat muhofazasi ostida bo‘lgani sababli, bu yo‘nalishda davlatning institutsional funksiyasi obyektlarni davlat-xususiy sheriklik asosida boshqarish, ularni tiklash va turistik maqsadlarda foydalanishga moslashtirish — boshqa turizm turlariga qaraganda ancha yuqori ahamiyat kasb etadi. Ziyorat-turizm salohiyati yuqori, biroq umumtranzit yo‘nalishlar (Buxoro–Samarqand)dan chetda qolgan hududlarda davlatning infratuzilma va reklama-axborot siyosati orqali faol aralashuvi bo‘lmasa, mintaqaviy salohiyat milliy statistikaga to‘liq aks etmasligi mumkin. Bu esa davlatning nafaqat umummilliy, balki aynan mintaqaviy darajadagi maqsadli siyosatiga bo‘lgan ehtiyojni yana bir bor tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, raqamli transformatsiya yo‘nalishi hozircha strategiya loyihasi bosqichida bo‘lib, uning amaliy natijalarini baholash uchun keyingi yillarda qo‘shimcha tadqiqotlar talab etiladi.

Xulosa, takliflar va tavsiyalar. O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda turizm sohasining jadal rivojlanishi bevosita davlatning faol va ko‘p qirrali roli bilan bog‘liq. Davlat bu jarayonda to‘rt asosiy funksiyani bajaradi: institutsional boshqaruvni takomillashtirish, moliyaviy-soliq imtiyozlari orqali xususiy tashabbuslarni rag‘batlantirish, uzoq muddatli strategik maqsadlarni belgilash va raqamli transformatsiyani ta‘minlash. Erishilgan natijalar, xususan tashrif buyuruvchilar sonining sezilarli oshishi, davlat siyosatining samaradorligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, “davlat yana nima qilsa turizm sohasi yanada jadal rivojlanadi” degan savolga javoban, tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

hududiy tengsizlikni bartaraf etish maqsadida hududiy loyiha boshqaruvi tizimini har bir viloyat kesimida aniq moliyaviy va kadrlar bilan ta’minlangan holda joriy etish;

Qashqadaryo kabi ziyorat-turizm salohiyati yuqori (soni jihatidan), biroq infratuzilmasi nisbatan orqada qolgan hududlarga alohida davlat dasturlarini yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir;

davlat-xususiy sheriklikning samaradorligi shartnoma shaklidan ko‘ra boshqaruv sifatiga bog‘liq bo‘lgani sababli, DXSH loyihalarini amalga oshirishda mahalliy hokimiyat, tadbirkorlar va mahalliy jamoatchilikni birgalikda qaror qabul qilish jarayoniga jalb etuvchi inklyuziv boshqaruv mexanizmlarini institutsionallashtirish lozim;

raqamli transformatsiya yo‘nalishini strategiya loyihasi bosqichidan amaliyotga o‘tkazish uchun yagona milliy turizm raqamli platformasini (jumladan, ziyorat turizmi uchun ixtisoslashtirilgan raqamli xarita-marshrut tizimlarini) muayyan muddatlar va moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlangan holda bosqichma-bosqich joriy etish, shuningdek uning samaradorligini yillik monitoring qilib borish tavsiya etiladi;

iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yondashuviga tayangan holda, moliyaviy rag‘batlantirish choralarini (subsidiyalar, soliq imtiyozlari) nafaqat umummilliy, balki hududiy va tarmoq (masalan, ziyorat, ekoturizm, agroturizm) kesimida tabaqalashtirilgan holda takomillashtirish;

davlatning to‘rtta funksional yo‘nalishi (institutsional, moliyaviy, strategik, raqamli) o‘rtasidagi muvofiqlashtirishni kuchaytirish uchun ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha erishilgan natijalarni yagona ko‘rsatkichlar tizimi asosida muntazam baholab boruvchi monitoring mexanizmini joriy etish tavsiya etiladi, bu esa davlat siyosatini alohida chora-tadbirlar yig‘indisi sifatida emas, balki yaxlit boshqaruv tizimi sifatida amalga oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-348-son Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-apreldagi “Hududlarda turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va sohada loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-161-son Qarori. // president.uz/oz/lists/view/8692
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali: Turizm faoliyati sahifasi. // gov.uz/oz/activity_page/tourism
5. Turizm sohasini tizimli rivojlantirish qanday ta‘minlanadi // Norma.uz, 2026.//norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/turizm_sohasini_tizimli_rivojlantirish_qanday_taminlanadi
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2026-yil birinchi choragiga oid dastlabki ma‘lumotlari
7. To‘xliyev I.S., Hayitboev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari: Darslik. – T.: Fan va texnologiya.
8. Jenkins C.L., Henry B.M. Government involvement in tourism in developing countries // Annals of Tourism Research. – 1982. – Vol. 9, No. 4. – P. 499–521.
9. Hall C.M. Tourism: Rethinking the Social Science of Mobility. – Harlow: Pearson Education, 2005. – P. 236 (davlatning turizmdagi yettita funksiyasi tavsifi).
10. Bramwell B. Governance, the state and sustainable tourism: a political economy approach // Journal of Sustainable Tourism. – 2011. – Vol. 19, No. 4–5. – P. 459–477.
11. Hodge G.A., Greve C. On public–private partnership performance: A contemporary review // Public Works Management & Policy. – 2017. – Vol. 22, No. 1. – P. 55–78.
12. Fennell D.A. Tourism Ethics. – 2nd ed. – Bristol: Channel View Publications, 2019.
13. Qurbonov P.R., Safarov I.B. Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmi. – Toshkent: “Fan va ta’lim” nashriyoti, 2021.
14. Qurbonov P.R., Safarov I.B. Qashqadaryo viloyatida ziyorat turizmining rivojlanish xususiyatlari // "Yangilanayotgan O‘zbekistonda geografiya: fan, ta’lim va innovatsiya" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2021.